Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 82

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

LINGVOPOETIKANING NAZARIY ASOSLARI

Diloromxon Rustamjon qizi Ismoilova*

Renessans ta’lim universiteti dotsenti, f.f.f.d, (PhD)

✉ d.r.ismoilova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lingvopoetikaning nazariy asoslari, uning tilshunoslik va adabiyotshunoslik bilan uzviy aloqasi hamda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanish va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Badiiy matn tilini lingvistik va badiiy-estetik jihatdan o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Lingvopoetikaning shakllanishida Arastu, Vilgelm fon Gumboldt, Ferdinand de Sossyur va G. Viddovson kabi olimlarning ilmiy qarashlari hamda nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy asarda qo‘llanilgan til birliklarining semantik, ekspressiv va estetik imkoniyatlarini aniqlashda lingvopoetik tahlilning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar

lingvopoetika, badiiy matn, poetika, til va nutq, lisoniy birliklar, badiiy-estetik xususiyat, ekspressivlik, nazariy asoslar, tilshunoslik, badiiy adabiyot.


DOI: 10.5281/zenodo.23620959

KIRISH

Til insoniyatning o‘y-fikrlari, yashash va ish faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u orqali jamiyatda o‘zaro aloqa-aralashuv yuzaga keladi. Insonlar azal-azaldan atrofdagi boshqa shaxslar va ichki kechinmalarni ifodalash maqsadida ta’sirli vositalardan biri bo‘lgan badiiy nutqdan foydalanib kelgan. Badiiy nutq esa tabiiy ravishda so‘z san’atkorlari bo‘lgan yozuvchi va shoirlar qalami ostida rivojlanadi va badiiy adabiyot deb atalmish san’at asaridan joy oladi. Badiiy adabiyotni ilmiy jihatdan tadqiq etishning ahamiyati unda umumxalq tilining har bir qirrasini namoyon etishida ko‘rinadi.

Badiiy adabiyot tilini o‘rganish uzoq tarixga egaligi, qolaversa, mazkur yo‘nalishdagi izlanishlarga har doim ehtiyoj yuqori bo‘lgani sababli dunyo filologlari ushbu sohani o‘rganuvchi mustaqil bir fan turi shakllanishi tarafdori bo‘lganlar. Badiiy asar tilini faqat til faktlari asosida emas, balki badiiy-estetik nuqtayi nazardan tadqiq qilish tilshunoslikda lingvistik poetika yoki lingvopoetika deb nomlanadi. Ya’ni ushbu fan tarmog‘i badiiy asarda foydalanilgan til birliklarining faqat ma’no anglatish yoki ma’lumot berish kabi vazifalar bilan chegaralanmay, balki o‘quvchiga ularga nisbatan ta’sir kuchini o‘rganadi.

Lingvopoetikaning tilshunoslikdagi boshqa yondosh sohalardan asosiy farqi shundaki, ushbu fan doirasida faqatgina adabiy-badiiy asarlar: dramaturgiya, nazm va nasr namunalari tadqiq qilinadi. Bunda ijodkor tomonidan qo‘llanilgan lingvistik shakllar va leksik tanlov asar ideologiyasi va badiiy mazmuni, shuningdek, ekspressivligiga qay darajada xizmat qilayotganini o‘rganish bosh vazifa hisoblanadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Til va adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni lingvistik qonuniyatlar orqali o‘rgangan ingliz tilshunosi G.Viddovson ta’biriga ko‘ra, badiiy adabiyot tili aniq ifodalangan lisoniy kodlar orqali emas, balki mana shu kodlarning yo‘qligi bilan xarakterlanadi. [3.P.34]

Darhaqiqat, lingvopoetik tahlilda bir qarashda anglashilgan ma’no emas, balki yashirin ma’noni ko‘rsatib berish ahamiyatlidir. Bunda til sistemasiga tegishli qanday unsurlar qo‘llanilyapti, ular badiiy matnda qanday poetik mohiyat kasb etayotganini aniqlash bosh maqsad hisoblanadi.

Poetika atamasi dastavval Arastuning shu nomdagi asarida uchraydi. Arastu hamma san’at turlarini poeziya deb nomlab, ularni drama, epos va lirika kabi turlarga ajratadi. Muallif poetik san’atning ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyatini to‘g‘ri anglagan holda, poeziya san’atining estetik-emotsional kuchini qadrladi. [4.Б.16]

XX asrning o‘rtalarida ilm ahlini e’tiborini tortgan va ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan lingvopoetika bir qator omillar asosida taraqqiy etdi. Yevropa va Amerika strukturalizmi, sistem-funksional grammatika va transformativ grammatika maktabi vakillarining deskriptiv metod usulidan unumli foydalanishlari yangi til sohasi uchun dasturul amal vazifasini o‘tadi. Natijada mazkur yo‘nalishga doir nazariy qarashlar ifodasini topgan “Poetics” (Poetika), “Poetics Today” (Bugungi kun poetikasi), “Journal of literary semantics” (Badiiy semantika jurnali) singari ilmiy jurnallar yuzaga keldi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Dastavval, nemis olimi Vilgelm fon Gumboldtning dunyo tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasini e’tirof etish lozim. Aynan V.Gumboldtning “til shunchaki ma’no anglatuvchi so‘z va so‘z birikmalardan iborat emas, balki u qoidalar bilan boshqariladigan, hamisha davomli rivojlanuvchi sistemadir” [2.S.18] mazmunidagi fikrlari bugungi kundagi lingvopoetik tamoyillar mazkur olimning lingvistik xulosalariga borib taqalishini ko‘rsatadi. Shuningdek, nemis olimining individ dunyoqarashini tilda aks etishi borasidagi nazariyasi aynan badiiy asar tilining lingvistik tabiatiga xos ekanligini tasdiqlaydi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda tug‘iladi va shu jamiyat a’zolarining o‘y-tafakkuri asosida taraqqiy etadi. Muayyan til lug‘at boyligining kengayishi, avvalo, shu tilda so‘zlovchilarning tildagi barcha imkoniyatlardan foydalanishi bilan asoslanadi. Nemis tilshunosi Vilgelm fon Gumboldtning qator xorijiy tillarni o‘rganib,

ularni qiyoslash natijasida yuzaga kelgan ilmiy xulosalari lingvopoetika taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Xususan, V.Gumboldtning “muayyan xalqning obyektiv borliqni turlicha idrok qilishi mazkur millatning turmush tarzi va qadriyatlarini tilda aks etishidir”[2.S.38] mazmunidagi qarashlari lingvopoetik tadqiqotlarda insonlar dunyoqarashi va madaniyati singari omillarni ham inobatga olish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Tilshunoslikda katta burilish yasagan Ferdinand de Sossyur tilni “belgilar sistemasi” sifatida ta’riflab, til hamda nutq hodisalarini bir-biridan farqlashi, tilga shakl nisbatini berib uning tarkibidagi elementlar tenglik asosida o‘zaro mavjud ekanligini fanga ma’lum qilishi [1.P.112] undan keyingi tadqiqotchilar, xususan, lingvopoetika doirasida izlanish olib borgan olimlar uchun bosh g‘oya sifatida xizmat qildi. Mazkur qarashlar tilshunoslikda yangi davr boshlanishiga zamin yaratdi. Yangi lingvistik qonuniyatlar F.de Sossyur nazariyalari bag‘rida rivojlana boshladi. Olimning ta’limoti lingvopoetikada muhim hisoblangan yozuvchining individual uslubi va badiiy asarda qo‘llanilgan til vositalarining yozuvchi ko‘zlagan maqsadi yo‘lida bo‘ysundirilishi kabi ilmiy qarashlarni asoslaydi.

XULOSA

Davrlar osha kitobxon nasriy yoki lirik asar mazmunini qanday tushungani, aynan mazkur anglab yetish jarayonida muallif qo‘llagan turli ekspressiv vositalardan qay darajada ta’sirlangani, shuningdek, mazkur til unsurlari muayyan bir til imkoniyatlarini ochib berishga qanchalik xizmat qilganini aniqlashga bo‘lgan ilmiy sa’y-harakatlar lingvopoetikaning tadrijiy rivojiga yo‘l ochib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ferdinand de Saussure. Course in General Linguistics. – Columbia university press, 2011. – P.112.
2. Humboldt W.V. Uber die Verschiedenheit des Menschlichen Sprachbaues. – Berlin, 1836. – S.18.
3. Widdowson H, Stylistics and the Teaching of Literature. Taylor & Francis Group, 2016, – P. 34
4. Арасту, Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. Б 16